

DINAMIK BOSHQARUV TIZIMINING MODELLARI VA ALGORITMLARI.

Umaraliyev Jamshidbek To‘xtasin o‘g‘li

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg‘ona filiali talabasi

Djemilova Elzara Arsenevna

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg‘ona filiali talabasi

Nazirjonov Ubaydulloh Nozimjon o‘g‘li

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg‘ona filiali talabasi

Qosimov Husniddin Toshmammad o‘g‘li


Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg‘ona filiali talabasi

Ochiq tizim boshqaruv funksiyalarida markazlashgan va nomarkazlashgan boshqaruvga yo‘l qo‘yiladi. BOC modeli boshqaruv funksiyasi markazlashuv darajasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatib bermaydi. Boshqaruv tizimini tarqatishda, har bir uzal bosqichida hamda yagona markaz bosqichida boshqarish mumkin. Masalan, umumiy foydalanish aloqa tarmoqlarida, telefon yuklanishining markazlashgan va nomarkazlashgan boshqaruvi olib boriladi. Bundan tashqari, berilgan ochiq tizim boshqa ochiq tizimlar bilan bevosita birga harakatlanmasa ham, boshqaruv uchun harakatlanmaydigan ochiq tizim elementlari orasidagi ulanishni o‘rnatish va boshqaruv signallarini jo‘natishni amalga oshirish mumkin.

Tarmoq boshqaruvi vazifalari nuqtai nazaridan, eng muhim muammolardan biri-boshqaruvchi tizimdan boshqarilayotgan tizimga buyruq jo‘natish; boshqarilayotgan tizimdan buyruq qabul qilingani va bajarilish natijasi tasdig‘ini qabul qilish muhim. Boshqa so‘z bilan aytganda, boshqaruv ma‘lumotlarini kafolatli yetkazish bilan, boshqaruv jarayonining barcha ishtirokchilari orasida boshqaruv ma‘lumotlari almashinuvini ta‘minlash zarur.

OSI modelida boshqaruv turidan kelib chiqqan holda, (tizim boshqaruvi; N bosqichi boshqaruvi; N bosqichi jarayoni) boshqaruv ma‘lumotlari almashinuvining uch shakli aniqlangan.

Tizim boshqaruvida monitoring, tezkor nazorat va ochiq tizimlar resurslari koordinatsiyasiga taaluqli axborotlar almashinuvi o‘tadi. Boshqaruv resurslari sifatida, aloqa kanallari o‘tkazuvchanligi, aloqa yo‘nalishidagi bo‘sh kanallar soni, yuklanishni o‘tkazish uchun marshrutlar jadvali mazmuni, ma‘muriy ta‘qiqlash yoki aloqa xizmatidan foydalanish ruxsati va boshqalar ko‘rib chiqilishi mumkin. Boshqarilayotgan obyektlar bilan birgalik jarayonida, boshqaruv resurslarining talab qilingan o‘zgarishi amalga oshiriladi. Boshqarilayotgan obyektlar OSI modelining bir nechta bosqichlarida bo‘lish mumkin.




Tizim boshqaruvida ma'lumot almashinuvi

OSI modelida ochiq tizimlar orasidagi boshqaruv ma'lumotlari almashinuvida, o'zaro kelishilgan holda ma'lumotlar taqdim etilishi, boshqaruv uchun sessiya o'rnatilishi "boshidan-oxiriga" boshqaruv ma'lumotlarini jo'natish uchun transportxizmatlarining mavjudligi va boshqalar talab qilinadi. Ko'rsatilgan harakatlar, ochiq tizimlar biriktirilgan (прикладной) bosqichlari orasida mavjud bo'lgan ma'lumot almashinuvi qoidalariga mos kelishi kerak. Shu yo'l bilan, tizimlar boshqaruvida ma'lumotlar jo'natish, biriktirilgan bosqich bayonlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi (7.1-rasm).

N bosqichli boshqaruv, ana shu bosqich operatsiyalariga aloqador ma'lumotni jo'natish zarurligida qo'llaniladi. Bosqich boshqaruvi misolida transport bosqichi ulanishlari boshqaruvi bayonlari xizmat qilishi mumkin. Shuni aytish joizki, ushbu bosqich boshqaruvi OSI modeli ustki bosqichning har qanday funksional vazifalarini qaytarishi mumkin emas. N bosqichli boshqaruv, OSI bayonlarining barchasi bilan foydalanish imkoni bo'lmagan vaqtda ishlatiladi.

15-rasmda transport bosqichida boshqaruv ma'lumotlari almashinuvi ko'rsatilgan. Transport bosqichidan tashqari, tarmoq va kanal bosqichida boshqaruv bosqichi ham tez-tez uchrab turadi. Ba'zi hollarda boshqaruv elementlari ma'lumot almashinuvi oddiy bayoniga kiritilgan.



Ma'lumot almashinuvining normal protokollari

N pog'onasi boshqaruvida ma'lumot almashinuvi